

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: 1415704/2300-son telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida abonent shartnomasi to'g'risida.

3. Loyihaning mazmuni: Amudaryo tumani SEOvaJSB nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi **Bekiyev G.T.** bir tomondan hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi **Qoraqalpogiston Respublikasi filiali** nomidan **2021-yil 1 fevral 27-01-14/6014**-son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Qoraqalpogiston Respublikasi filiali direktori **Q.E. Tajenov** ikkinchi tomondan, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Amudaryo tumani SEOvaJSB tomonidan 2022-yil **1-fevral** kuni ishlab chiqilgan va **dasturga 2022-yil 1-fevralga** kiritilgan.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustidagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holatda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me'yoriy hujjatlarga javob beradi. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi 38-bob Haq evaziga xizmat ko'rsatish, 703,704,705,706,707,708-moddalari to'g'risidagi shartnoma qoidalari bilan tartibga solinadi.

2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me'yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to'liq mos keladi.

3. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruv organining qonuniy yoki boshqa ko'rsatmalari mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Amudaryo tumani SEOvaJSB tomonidan 2022-yil ~~1-avgust~~ ^{1-avgust}da ishlab chiqilgan **1415704/2300**-son telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida abonent shartnomasi to'g'risida"gi shartnomasining yuqoridagi keltirilgan asoslarga ko'ra qabul qilinishi **muvofigligi haqida.**

Amudaryo tumani Yuridik
Xizmat ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti: 1-darajali yurist:



Sh.Sh.Vaisniyazov